

## YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIY-HUQUQIY ASOSLARI

*Muallif: Doniyarova Saida Sharof qizi  
SamDUKF Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarga qaratilgan e'tibor ularni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari haqida to'xtalib o'tildi. Bugun dunyoda yosh avlod misli ko'rilmagan darajada ko'pchilikni — 2 milliarddan ziyodni tashkil qilmoqda. Bu insoniyat tarixida yoshlar sonining eng yuqori ko'rsatkichidir. Jahondagi yoshlarning qariyb 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi va ular aholining salmoqli qismini tashkil etadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich ya'ni yoshlar soni aholining 60 foiziga to'g'ri keladi. Aynan shuning uchun ham ularni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz va boshqa qator rivojlanayotgan mamlakatlarda dolzarb masala hisoblanib kelmoqda.

**Аннотация:** В данной статье было сосредоточено внимание на молодежи в современном Узбекистане, а также обсуждались государственные программы, реализуемые в целях ее социальной, экономической и правовой поддержки. Сегодня молодое поколение в мире составляет беспрецедентное большинство – более 2 миллиардов человек. Это самое большое количество молодых людей в истории человечества. Около 90 процентов молодежи мира проживают в развивающихся странах и составляют значительную часть населения. В Узбекистане этот показатель, то есть количество молодежи, соответствует 60 процентам населения. Именно по этой причине их социальное и правовое обеспечение считается актуальным вопросом в нашей стране и в ряде других развивающихся стран.

**Annotation:** In this article, attention was focused on youth in Uzbekistan today, and the state programs implemented in order to support them socially, economically, and legally were discussed. Today, the young generation in the world is an unprecedented majority - more than 2 billion. This is the highest number of young people in human history. About 90 percent of the world's youth live in developing countries, and they make up a significant part of the population. In Uzbekistan, this indicator, that is, the number of young people, corresponds to 60 percent of the population. It is for this reason that their social and legal support is considered an urgent issue in our country and other developing countries.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, konvensiya, yoshlar huquqi, huquqiy kafolat, savodxonlik, ta'lim, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, qonuniy hujjatlar, demografiya.

**Ключевые слова:** молодежь, конвенция, права молодежи, правовые гарантии, грамотность, образование, поддержка молодежи, правовые документы, демография.

**Key words:** youth, convention, youth rights, legal guarantee, literacy, education, youth support, legal documents, demography.

### Kirish

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yoʻlida yurtning jadal rivojlanishi va muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon boʻlishi oʻsha davlatda yoshlar taʼlim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan eʼtibor darajasiga bevosita aloqador. Shu maʼnoda, Oʻzbekiston yoshlar masalasiga davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralishi bejiz emas. Butun dunyoda yoshlar, ularning yetakchilik mahorati, ijodiy salohiyati, navqiron kuch-qudrati va joʻshqinligi dunyo hamjamiyatining doimiy rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun gʻoyat muhim omil hisoblanadi.

### Asosiy qism

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida taʼkidlaganidek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson boʻlib kamolga yetishi bilan bogʻliq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”.

Mamlakatning kelajagi, soʻzsiz, yosh avlodning tarbiyasi va taraqqiyoti bilan bogʻliq. Navqiron avlod kamolotiga avvalo oilada onaning, yaʼni xotin-qizlarning nechogʻlik savodxon va tadbirkor ekanligi ham taʼsir qilishi shubhasiz. Oʻzbekistonda xotin-qizlarning taʼlim olishi uchun bir qancha imtiyozlar va huquqlar berilgan. Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi maʼlumotlariga koʻra, respublikadagi jami OTMda tahsil olayotgan talabalar milliondan oshiq va xotin-qiz talabalarning ulushi yuqoriroq. 1 315 302 talabaning 649 971 nafari erkaklar, 665 331 nafari esa xotin-qizlardir. Magistraturada tahsil olayotgan 24 mingdan oshiq talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. Bularning barchasi bejizga emas albatta yuqorida takidlaganimizdek oʻsib borayotgan yosh avlodning taʼlim va tarbiyasiga masʼul shaxs bu albatta onadir. Shu sababli bugungi kunda xotin-qizlarning taʼlim olishga davlatimiz tomonidan juda katta eʼtibor berilmoqda. Bu borada nafaqat xotin-qizlarimizga balki mamlakatimizdagi jamiki yoshlarimizga boʻlgan eʼtibor juda kuchlidir.

Soʻnggi yillarda yoshlar huquqlarini taʼminlash borasida bir qator yangi qonunlar qabul qilindi. Jumladan, “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi qonunga koʻra, yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatlaridan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yoʻnalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda

tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir<sup>1</sup>. Qonunga muvofiq, yoshlar – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslardir<sup>2</sup>. Ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda yoshlar dunyo aholisining qariyb 25 foizini tashkil etadi. Ya‘ni, 30 yoshgacha bo‘lgan 2 milliarddan oshiq aholining aksariyati rivojlanayotgan davlatlar va Markaziy Osiyo mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu ko‘rsatkich so‘nggi o‘n yilda yanada ortayotgani va bu jarayon asosan bizning mintaqamizda yuz berayotgani kuzatilmoqda. Xususan, yurtimizda aholining 60 foizdan ziyodini yoshlar tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon hamjamiyatini “BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi”ni qabul qilish bo‘yicha O‘zbekistonning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi. Mazkur tashabbus yoshlar muammolarini hal etish, sohaga oid xalqaro hujjatlardagi nomutanosibliklarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Va bu ham yoshlarga yana bir qancha qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib berish maqsadidadir.

Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularning huquqlarini ham himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Bunning yaqqol misoli sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar huquqlariga oid eng muhim 5ta kafolatni ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bular quyidagilar:

- Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta‘minlaydi.
- Davlat yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.
- Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.
- Davlat yoshlarning ta‘lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.
- Davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va

<sup>1</sup> Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonun . Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma‘qullangan

<sup>2</sup> Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonuniga asoslangan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma‘qullangan

Vatanga boʻlgan mehr-muhabbat tuygʻularini shakllantirish toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik qiladi.

Bundan tashqari Milliy qonunchiligimizga koʻra, 30-iyun – Oʻzbekiston Respublikasida “Yoshlar kuni” etib belgilangan<sup>3</sup>. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezident Farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi – Oʻzbekiston Respublikasi “Yoshlar ishlari agentligi” tashkil etildi<sup>4</sup>. Mamlakatimizda 2021-yilni – “Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, 2024-yilni esa “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili” deb eʼlon qilindi. Va bu yillar davomida yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy jihatdan rivojlantirish, qoʻllab-quvvatlash uchun qator dasturlar amalga oshirildi, qonunlar qabul qilindi. Yosh avlodni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida oʻzining yuksak azmu shijoati, ijodiy va intellektual salohiyati, isteʼdod va qobiliyatini namoyon etib, halol va samarali mehnati, turli sohalarda erishgan yutuqlari bilan yurtimiz taraqqiyotiga, uning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirishga munosib hissa qoʻshayotgan yoshlarni ragʻbatlantirish maqsadida “Kelajak bunyodkori” medali taʼsis etildi<sup>5</sup>. Yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy umumiy qilib aytganda har taraflama qoʻllab-quvvatlashga katta eʼtibor qaratilishi bejiz emas albatta. Yoshlar — innovatsiyalar, gʻoya va yechimlarning bitmas-tuganmas manbai. Bugungi kunda yoshlar faolligi har qachongidan ham muhim, zero, ular jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuchdir. Shu bois, aynan yosh avlod zimmasiga yorqin kelajak barpo etish vazifasi ishonib topshirilgan. Xalqaro hamjamiyat har qanday mamlakat taraqqiyotida sogʻlom va barkamol, tashabbuskor, zamonaviy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan yoshlar oʻta muhim oʻrin tutishini alohida eʼtirof etadi. Xususan, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish “tinchlik, faol iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, bagʻrikenglikni taʼminlash — bularning barchasi va yana koʻp narsalar yoshlar imkoniyatlaridan foydalanish bilan bogʻliq” ekanini taʼkidlaydi.

### Xulosa

Bugun Oʻzbekiston muhim demografik chegarada turibdi. 30 yoshgacha boʻlgan yoshlar aholining 60 foizini tashkil qiladi. Buni respublika uchun oʻziga xos qimmatbaho “demografik dividend”, deb atashimiz mumkin. Keyingi yigirma yil ichida bugungi bolalar va yoshlar Oʻzbekiston tarixidagi eng katta ishchi kuchiga aylanadi. Demakki, yoshlarni rivojlantirishga sarmoya toʻgʻri sarflansa, aynan shu

<sup>3</sup> “Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar kunini belgilash toʻgʻrisida”gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 14-avgustda qabul qilingan va 2017-yil 24-avgustda Senat tomonidan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 25-avgustda imzolangan.

<sup>4</sup> Yoshlar ishlari agentligi Prezidentning PF-6017-son Farmoni bilan 2020-yil 30-iyunda tashkil etilgan.

<sup>5</sup> “Kelajak bunyodkori” medalini taʼsis etish toʻgʻrisida qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2017-yil 20-dekabrda maʼqullangan

yigit-qizlar O'zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqadigan avlod bo'lib shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqar ekanmiz mamlakatimiz o'z aholisini ayniqsa yosh avlodni qanchalik qadrlashi, qo'llab-quvvatlashini anglaymiz. BMTning «Yoshlar-2030» strategiyasida qayd etilganidek “Yoshlar eng bebaho va juda muhim resurs hisoblanadi, shuning uchun ularga sarflangan sarmoya ko'p karra miqdorlarda o'zini qoplaydi”. Ushbu so'zlarning ma'nosini to'g'ri tushungan yurtboshimiz o'tgan yillar davomida yoshlarimizga ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy savodxonligini oshirishlari, o'z ustida ishlab rivojlanishlari uchun Respublika miqyosida juda katta islohotlarni amalga oshirdilar. Xulosa qilib aytish mumkinki yoshlar har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir)- 01.05.2023
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonun . Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan
3. “O'zbekiston Respublikasi Yoshlar kunini belgilash to'g'risida”gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 14-avgustda qabul qilingan va 2017-yil 24-avgustda Senat tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 25-avgustda imzolangan.
4. Yoshlar ishlari agentligi Prezidentning PF-6017-son Farmoni bilan 2020-yil 30-iyunda tashkil etilgan.
5. “Kelajak bunyodkori” medalini ta'sis etish to'g'risida qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2017-yil 20-dekabrda ma'qullangan
6. Huquqiy jamiyat va taraqqiyotimizning mustahkam poydevori  
<https://uza.uz/posts/511803>
7. <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
9. <https://lex.uz/uz/>